

O‘ZBEK TILIDA LUG‘AT YON DAFTARCHASI TUTISH VA ONA TILI DARSLIKLARIDAGI LUG‘AT SO‘ZLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ergasheva Mashxura Nuriddin qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilining leksik boyligini o‘rganish va boyitish jarayonida maktab o‘quvchilarining lug‘at yon daftarchasi tutishlari o‘rni, shuningdek, 5–11-sinf ona tili darsliklaridagi lug‘at so‘zlardan foydalanishning til o‘rgatishdagi metodik ahamiyati tahlil etiladi. Maqolada amaliy misollar orqali o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda lug‘at daftarchasining samarali vosita sifatida xizmat qilishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *leksikologiya, lug‘at yon daftarchasi, ona tili darsligi, lug‘at so‘zlar, o‘quvchi so‘z boyligi, metodika, amaliy yondashuv.*

Abstract: *This article analyzes the role of keeping a dictionary notebook for schoolchildren in the process of studying and enriching the lexical wealth of the Uzbek language, as well as the methodological significance of using dictionary words in native language textbooks for grades 5–11 in language teaching. The article substantiates the fact that the dictionary notebook serves as an effective tool in increasing students' vocabulary through practical examples.*

Key words: *lexicology, dictionary notebook, native language textbook, vocabulary words, student vocabulary, methodology, practical approach.*

Bugungi ta’lim tizimida o‘quvchilarning til boyligini oshirish, ularda lingvistik tafakkurni shakllantirish hamda kontekstda so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash malakasini rivojlantirish dolzarb vazifa sanaladi. Shu nuqtayi nazardan, bizda shunday savol tug‘ilishi mumkin: “Nega o‘quvchi, talabada boshqa chet tillarini o‘rganish jarayonida hamisha yangi so‘zlar uchun lug‘at daftarchasi bo‘ladi-yu, o‘zbek tilini o‘rganayotganda bu usulni qo‘llashmaydi?! Bu jarayonda lug‘at so‘zlaridan to‘g‘ri foydalanish va ularni tizimli o‘rganish, ayniqsa, yangilangan darsliklar asosida yuritiladigan lug‘at yon daftarchasi muhim metodik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tilining leksik boyligi haqida bilim berishda faqatgina so‘zning izohini o‘rganish emas, balki uning kontekstdagi qo‘llanilishi, uslubiy ranglari va ma’no o‘zgarishlarini ham tushunish zarur. Yangi o‘quv dasturlari asosida ishlab chiqilgan 5–11-

sinf ona tili darsliklarida o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirishga xizmat qiladigan lug‘at so‘zlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu darsliklarda so‘zlar nafaqat leksik ma‘nosi bilan, balki matn kontekstidagi vazifasi, semantik yuklamasi orqali ham ochib beriladi. Shunday vaziyatda lug‘at yon daftarchasi – har bir o‘quvchi uchun mustaqil til o‘rganish vositasiga aylanadi. Tilshunos olimlar fikricha, so‘zning ma‘no imkoniyatlarini chuqur anglash uning matndagi kontekstual vazifasini o‘rganish orqali yuzaga chiqadi. Bu holat o‘quvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, lug‘at so‘zlarini chuqur tahlil qilish, ularni amaliy nutqga tatbiq etish va ularni o‘quv jarayonida tizimli tarzda yoritish — hozirgi o‘zbek tilshunosligining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Lug‘at yon daftarchasi til o‘rganayotgan shaxsning o‘zlashtirgan yangi so‘zlarini, ularning ma‘nolarini, sinonim va antonimlarini, so‘z birikmalardagi ishlatilishini qayd etib boradigan shaxsiy yon daftarchasidir. Nafaqat boshqa millat vakili, balki o‘zbek tili vakillari, ayniqsa bu ishni yoshlardan boshlash darkor. Bu vosita nafaqat eslab qolishga, balki boshqa soha vakillari uchun ham so‘zlarni kontekstda qo‘llashga, stilistik ma‘nolarni tushunishlariga yordam beradi.

Yangi darsliklar metodik jihatdan mukammallashtirilgan bo‘lib, har bir mavzu oxirida o‘quvchilar uchun mustaqil ishlashga mo‘ljallangan “Lug‘at ishi” topshiriqlari berilgan.¹⁰¹ Bu topshiriqlar o‘quvchini faollashtiradi, mustaqil izlanishga undaydi. 10-sinf darsligida matn asosida quyidagi so‘zlar ketma-ketligi berilgan: xuruj, ongosti, g‘ayriixtiyoriy, proyektor, kadr, bestseller.¹⁰²

O‘qituvchi o‘quvchiga ushbu so‘zlarni lug‘at daftariga qayd qildirib, shu asosda o‘quvchiga turli xil topshiriqlar berishi mumkin. Masalan:

Ushbu so‘zlar o‘rniga yana qanday so‘zlardan foydalanishimiz mumkin;

Quyidagi so‘zlar yordamida lidaqialik matn tuzing va uni og‘zaki bayon qiling;

Berilgan so‘zlar darslikda qanday ma‘no anglatib kelgan va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qanday ma‘no anglatmoqda?

10-sinf darsligidan misol:

Shuningdek darslikda neologizm so‘zlar ham taqdim etilgan: lokatsiya, fleshka, onlayn, oflayn, bodikamera, xeshteg, skaner, skrinshot, parol, masterklass, QR-kod, sayt, chellenj, startap, yuzer, trening va h.k.¹⁰³ Ushbu so‘zlarni lug‘at daftarga qayd

¹⁰¹ B. Mengliyev, Sh. Abdurahim, K. Mavlonova, M. Siddiqov, S. Atoeva. 10-sinf ona tili darsligi. Toshkent-2022, 222 bet.

¹⁰² B. Mengliyev, Sh. Abdurahim, K. Mavlonova, M. Siddiqov, S. Atoeva. 10-sinf ona tili darsligi. Toshkent-2022, 45.1-mashq, 154-bet.

¹⁰³ B. Mengliyev, Sh. Abdurahim, K. Mavlonova, M. Siddiqov, S. Atoeva. 10-sinf ona tili darsligi. Toshkent-2022, 106-bet.

qildirib,ularga o`zlari qanday so`z taklif qilsalar,shu so`zni yozishlarini va mashq daftarga shu asnoda esse yozishlarini topshiriq qilish maqsadga muvofiq bo`ladi.

11-sinf darsligida keltirilgan tibbiyot tilida qo`llanuvchi so`zlar “yumshoq ifodalar” va ochiq ma`nosi <sup>104</sup> ko`rinishida jadvalda so`zlar keltirilgan.O`quvchiga yana shunga o`xshash so`zlarni topib,matn tuzishlarini va bu matndan yodlarida eslab qolishlari uchun qiziqarli o`yinlar topib kelishlarini yoki videomatn va audiomatn shaklida tayyorlanib kelishlarini topshiriq qilish mumkin.

O`qutuvchi quyidagi ko`rinishda nostandart testlar ham tuzib,dars jarayonlarida qo`llashi mumkin:

Quyida keltirilgan so`zlarni izohi bilan moslashtiring(ikkitasi ortiqcha)

1. Ijtimoiy ong 2. Integratsiya 3. Tahliliy tafakkur 4. Ekotizim 5. Virtual haqiqat 6. Insonparvarlik 7. Multimadialik 8. Ma`rifatparvarlik 9. Dialog madaniyati 10. Axborot maydoni	A. Turli millat va sohalar o`rtasidagi uyg'unlashuv jarayoni B. Internet va media orqali shakllangan axborotlar fazosi C. Har bir insonni qadrllovchi va hurmat qiluvchi yondashuv D. Ekologik muvozanatni tashkil etuvchi tizim E. Bilimni jamiyatga yoyish, o`rgatishga intilish F. Qiyosiy, sababli tahlil qilish qobiliyati G. Inson va texnika munosabati bilan bog`liq soha H. Jamoada, jamiyatda shakllanuvchi dunyoqarashlar majmuasi I. Suhbat, muloqot yuritish qoidalariga amal qilish J. Yangi texnologiyalar asosida ko`p turdagi axborot vositalaridan foydalanish K. Haqiqatni yolg`ondan ajratib turuvchi bilish mezon L. Kompyuter va raqamli
---	---

¹⁰⁴ N.M.Mahmudov,Y.R.Odilov,G.Sh.Ziyodullayeva.11-sinf ona tili darsligi II qism.Toshkent: “O`zbekiston” 2018, 9.1-topshiriq,34-bet.

	texnologiyalar yordamida yaratilgan sun'iy muhit
--	---

Ushbu soʻzlar oʻrnida yana qanday soʻzlar qoʻllash mumkin edi?

Darslikda keltirilgan matnlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi.

10-sinf darsligidan olingan “Gender tengligi” matnida: *“Turkiylarning qadim tasavvurlaridan nishona berguvchi Umay ona, Ayozi momo, Momoqaldiraq, Chir ine (ona yer) kabi **kultlar** ham bizning tariximizda ayolga-yaratuvchiga boʻlgan munosabatdan darak beradi”*¹⁰⁵. Lugʻatdan ushbu soʻz(**kult**)ning maʼnosini toping va matnda qanday maʼnoda qoʻllanganini aniqlang.

Javob: _____

Oʻqituvchilar yuqoridagi metodlardan, testlardan foydalanishsa, oʻquvchilar yodida yanada yaxshiroq qolishiga yordam beradi va natijada oʻquvchini darsga yanada qiziqishi ortib, soʻzlarni lugʻat daftarchasiga kiritib boradi. Shu tarzda lugʻat soʻzlarini izohlash va ularni oʻz matnida ishlatish orqali oʻquvchi til boyligini mustahkamlab boradi.

Oʻquvchi yangi soʻzlarni oʻz daftarchasiga yozish, ularni takrorlash, eslab qolish jarayonida xotira, tafakkur, assotsiatsiya va idrok faol ishtirok etadi. Bu psixolingvistik jarayonlar orqali tilning aktiv va passiv lugʻaviy bazasi kengayadi.

Metodik jihatdan, lugʻat daftarchasidan:

diktant, matn tuzish,

soʻz oʻyinlari,

ibora yasashi,

soʻz turkumlarini aniqlash kabi topshiriqlarda foydalanish mumkin.

Masalan, 11-sinf darsligida berilgan Sh.Rahmatullayevning “Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati” dan olingan: “Koʻzining paxtasi chiqmoq”¹⁰⁶ iborasidan foydalanib, quyidagi jumla tuzish mumkin:

Komiljon bu voqeadan qattiq taʼsirlanganidan, koʻzining paxtasi chiqib keta yozdi.

Bu orqali oʻquvchi nafaqat soʻz maʼnosini, balki uning ijtimoiy vazifasini ham oʻzlashtiradi.

Lugʻat yon daftarchasini yuritish – oʻzbek tilining leksik boyligini egallashda samarali va mustahkam vositadir. Ayniqsa, 10–11-sinflar uchun moʻljallangan yangi ona tili darsliklarida berilgan lugʻat soʻzlari bilan ishlash oʻquvchilarning mustaqil fikrlashini, soʻz boyligini, ifoda uslubini rivojlantiradi. Shu bois, tilshunoslikning leksikologiya boʻlimida bu jarayon ilmiy-metodik jihatdan chuqur tahlil qilinmogi zarur.

¹⁰⁵ B.Mengliyev, Sh.Abdurahim, K.Mavlonova, M.Siddiqov, S.Atoeva. 10-sinf ona tili darsligi. Toshkent-2022, 55-bet.

¹⁰⁶ Sh.Rahmatullayev. Oʻzbek tili frazeologik lugʻati. Toshkent: “Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi” 2022. 252-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Mengliyev, Sh.Abdurahim, K.Mavlonova, M.Siddiqov, S.Atoyeva. 10-sinf ona tili darsligi. Toshkent-2022, 222 bet.
2. B.Mengliyev, Sh.Toshmirzayeva, S.Atoyeva, S.Majidova. 11-sinf ona tili darsligi I qism. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020, 110 bet.
3. N.M.Mahmudov, Y.R.Odilov, G.Sh.Ziyodullayeva. 11-sinf ona tili darsligi II qism. Toshkent: “O‘zbekiston”-2018, 94 bet.
4. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi” 2022, 635 bet.